

ERKIN A'ZAM HIKOYALRIDA XALQCHILLIK.**Toshev Asadbek Qudrat o'g'li**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Filologiya fakulteti 2- bosqich magistranti.

toshevasadbek0913@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14777103>

Annotatsiya. Mazkur maqola Erkin A'zamning hikoyalarda xalqchillik motivlarini yoritadi. Asarlarida qishloq hayoti, oddiy insonlarning o'ziga xos qiyofasi va ularning murakkab, lekin samimiy his-tuyg'ulari yuksak badiiy mahorat bilan aks etgan. Hikoyalardagi xalqona uslubi, obrazlarning til va harakat orqali ochilishi asosiy tahlil obyekti bo'ladi.

Kalit so'zlar

Erkin A'zam, xalqchillik, qishloq hayoti, realistik obrazlar, yumor va xalqona badiiyat.

Annotation: This article highlights the motifs of popular themes in Erkin A'zam's short stories. In his works, rural life, the distinctive characteristics of ordinary people, and their complex yet sincere emotions are depicted with high artistic skill. The folk style in the stories and the way characters are revealed through language and actions are the main subjects of analysis.


Keywords: Erkin A'zam, popular themes, rural life, realistic characters, humor, and folk art.

Аннотация: В данной статье рассматриваются мотивы народности в рассказах Эркина Азама. В его произведениях изображена сельская жизнь, уникальные черты простых людей и их сложные, но искренние чувства, отраженные высоким художественным мастерством. Народный стиль в рассказах и раскрытие образов через язык и действия являются основными объектами анализа.

Ключевые слова: Эркин Азам, народность, сельская жизнь, реалистичные образы, юмор и народное искусство.

Mavzuning dolzarbligi

Adabiyotda xalqchillik — jamiyatning turli qatlamlariga xos bo'lgan umumiy muammolar va ular aks ettirilgan badiiy timsollarni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Erkin A'zamning hikoyalari bugungi o'zbek adabiyoti rivojida xalq ruhiyatini badiiy aks ettirish borasida noyob namunadir. Ushbu maqola orqali adibning badiiy mahorati va uning asarlaridagi xalqona tamoyillarining ahamiyati kengroq yoritiladi.




Ma'lumki adabiyotning asosiy xususiyatlaridan biri insonshunoslikdir. Shunday ekan, badiiy asarning qimmatini va sifatini belgilashda yozuvchining bosh tadqiq obyekti – insonga, inson obraziga munosabatini ochish maqsadga muvofiq va g'oyat o'rinli vazifadir. Bundan tashqari, adabiyot har bir xalqning o'zligini anglash, uning ijtimoiy-ma'naviy hayotini aks ettirishda o'ta muhim vosita hisoblanadi. Bu jarayonda yozuvchi yoki shoirning xalq ruhiyatiga kirib borishi, uning tuyg'u va kechinmalarini samimiy tarzda ifoda etishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek adabiyotida xalqchillik motivlari ko'p asarlarda namoyon bo'lib, ular orqali milliy ong va qadriyatlar ifodalanadi. Xalq hayotini, uning turmush tarzini teran badiiy obrazlar vositasida tasvirlash, kishilar ruhiyatini o'ta noziklik bilan aks ettirish orqali o'zbek adabiyoti o'ziga xos mavqega ega bo'lgan.

Erkin A'zam o'zbek adabiyotida ana shunday xalqona badiiyatning yorqin vakillaridan biri sanaladi. Filologiya fanlari nomzodi Olim Toshboyev aytganidek "Erkin A'zam so'zni his qilgan, uning tarjimai holini biladigan ijodkor! Uning asarlarini cho'kirtikanak gaplar, istehzoyu kinoyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi." . Darhaqiqat, ijodkor hikoyalari qishloq hayoti, oddiy insonlarning o'ziga xos qiyofasi va ularning murakkab, lekin samimiy his-tuyg'ularini mahorat bilan ochib beradi. U nafaqat qahramonlarning kundalik hayotini yoritadi, balki ularning ichki dunyosidagi ziddiyatlar va orzu-umidlarini ham tasvirlashga katta e'tibor qaratadi. Adib asarlarida xalqchillikning yorqin namunasi sifatida qaraladigan xalqona til, badiiy tafakkur va tasvir vositalari alohida ajralib turadi.

Mazkur maqolada Erkin A'zamning "Anoyining jaydari olmasi" va "Abrorqulov Parijga boradi" kabi hikoyalari asosida uning ijodida xalqchillik motivlarining qay tarzda namoyon bo'lishi tahlil qilinadi. Bu asarlardagi obrazlar, ularning ichki ruhiy kechinmalari va oddiy qahramonlar timsolidagi universallik jihatlari alohida o'rganiladi.

"Anoyining jaydari olmasi" nomli hikoyasini mutolaa qilar ekanmiz Ramazon orqali xalqchillikning yorqin ko'rinishi tasvirlangan. Ramazonning shaharda o'zini noqulay his qilishi, uning oddiy va beg'ubor tabiatidan kelib chiqadi. Uning har bir harakati, so'zlari va munosabatlari o'zbek xalqining samimiyligi va jo'shqinligini aks ettiradi. Masalan, Ramazonning "Chantrimore" kabi so'zlarni ishlatishi, uning bolalik xotiralari bilan bog'liq ifodalar mahalliy madaniyatga xos unsurlarni yorqin ko'rsatadi. Uning ismi ham o'ziga monand qo'yilgan: Ramazon-Ro'za oyi kabi pok .




Shuningdek, hikoyada Ramazonning qishloqdan olib kelgan “jaydari olma”lari faqat bir meva emas, balki bolalik davrining qadrdon xotiralarini ifodalaydi. Bu oddiy detallarda xalqning tabiat bilan yaqinligi, o’tgan kunlarga bo’lgan sog’inchi namoyon bo’ladi. Erkin A’zam asarlarida xalqchillikni ko’rsatishda oddiy qahramonlarning ichki kechinmalari alohida o’rin tutadi. Ramazonning qahramon sifatidagi o’ziga xosligi – uning sodda, barchani o’zi kabi pok deb bilishi va ishonishi bilan ajralib turadi. Masalan, uning har safar o’qishga kirishga urinishlari yoki chayqovchilik ayblovi bilan qamalib, sudda o’zini himoya qilishga intilishi oddiy insonlarning hayotdagi to’siqlarini aks ettiradi.

Ramazonning shaharga kelib “Barnaulga ketib qolishni” orzu qilishi yoki o’zini begona his qilishi xalqning o’zini atrofdagi jamiyatdan uzoqlashgan, ammo ichki dunyosida boy va to’laqonli bir shaxs sifatida ko’rsatadi. Uning bu murakkab kechinmalari xalqning hayotiy kurashlarini, ularning sodda, ammo mazmunli hayotlarini anglatadi.

Erkin A’zam hikoyalarining xalqchilligi qahramonlar muloqotida yaqqol namoyon bo’ladi. Dialoglar xalqona ruhda, sodda, ammo mazmunli ifodalar bilan boyitilgan. Masalan, Ramazonning “Boysunning olmasi Bog’i Eramda ham bitmaydi” kabi so’zlari nafaqat uning oddiyligini, balki xalqning o’ziga xos til boyligini ham ochib beradi. Hikoya qahramonlarining nutqi orqali ularning turmush tarzi, qadriyatlari va ruhiyati aniq va sodda tarzda tasvirlanadi.

Hikoyada Ramazonning chayqovchilik ayblovi bilan qamalishi va sud jarayonidagi g’alati holatlar jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni ochib beradi. Oddiy insonlar duch keladigan muammolar – urbanizatsiya, iqtisodiy tengsizlik va hayotda o’z o’rnini topishdagi qiyinchiliklar muallif tomonidan hayotiy misollar orqali ko’rsatib berilgan. Ramazon qamalgan paytda ham o’z samimiyligini yo’qotmaydi, bu esa uning xalq vakili sifatida belgilovchi xususiyatidir. Erkin A’zam hikoyalarida xalqchillik faqatgina qishloq hayotini yoki xalqning sodda muhitini tasvirlash bilangina cheklanmaydi. U xalq hayotining ichki mohiyatini, ularning ma’naviy dunyosini ochib beradi. Ramazonning o’ziga xos va hayotga befarq bo’lmagan falsafiy munosabati, uning “Bari bir Xudoning buyurgani” deya qabul qilishi xalqning o’ziga xos dunyoqarashi va qadimiy falsafasini ko’rsatadi.

Adibning Abrorqulov Parijga boradi hikoyasiga to’xtaladigan bo’lsak hikoyada xalqchillikni o’ziga xos uslubda aks ettirgan badiiy asarlardan biridir. Hikoyada xalq hayoti, uning ichki dunyosi va turmush tarzi nozik hajv va xalqona ohangda yoritilgan. Qahramonlarning tabiatidagi beg’uborlik, mahalliy



koloritning boy tasviri va voqealar rivojidagi xalqona hayot falsafasi orqali hikoya xalqchillikning yorqin namunasi sifatida o'quvchida iliq taassurot qoldiradi. Hikoya voqealari Jiydali qishlog'ida kechadi. Jiydali o'zining oddiy hayoti bilan qishloq aholisi mentalitetini ochib beradigan ramzga aylangan. Muallif qishloqning tarixini va uning o'ziga xos atmosferasini quyidagicha tasvirlaydi: "Shu tariqa bora-bora gavjumlashib, o'tar yo'l yoqasidagi bir to'p yovvoyi jiyda bahona Jiydali atalganicha bugun ko'rk taratib turibdi."


Jiydalining tabiiy go'zalligi va tinch hayoti qishloq aholisi orasidagi do'stona va samimiy munosabatlarni o'zida mujassam etadi. Bu tasvirlar orqali qishloq hayoti va xalqning turmush tarzi muallif tomonidan xalqchillik ruhida aks ettirilgan. Hikoyaning asosiy qahramoni Abrorqulov o'zining oddiyligi, yuvoshligi va qiziq qiyofasi bilan xalqning ichki dunyosini aks ettiradi. U oddiy jug'rofiya o'qituvchisi bo'lib, o'ziga xos fazilatlari sababli Parijga borishga munosib ko'riladi. Muallif uning qiyofasini hazilomuz tasvirlaydi: "Bo'yinginasidan galstuk tushmaydi, guldoru endor galstuk, egnida mudom oq ko'ylagu qora kostyum-shim. Xullas, bari kinodagidek, yo'q, kitoblarda yozilgandek, ayni risolabop!" Abrorqulovning jamoat orasidagi mavqei va xalq bilan munosabatlari orqali muallif o'qituvchilarni xalq hayotining muhim bir qismi sifatida tasvirlaydi. Uning Parijga ketishi haqidagi mish-mishlar Jiydali qishlog'ining quvnoq va o'ziga xos hayotini ochib beradi.

Hikoya davomida hajviy uslub qishloq hayotining ichki tabiatini aks ettiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Abrorqulovning Parijga borishi masalasidagi gap-so'zlar, qishloq ahlining o'zgacha talqinlari xalqchillikni jonlantiradi. Masalan, Jiydaliliklar uchun "chet el" iborasi nafaqat Parijni, balki u bilan bog'liq tasavvurlarni ham o'z ichiga oladi:

"Avomning lahjasiga og'irlik qildi chog'i, jarangi-yu dovruq'iga qarab Parij degani tanlandi. Parij bo'lsa Parij-da, nima farqi bor?"

Bu joyda muallif xalqning o'ziga xos dunyoqarashini, ular uchun katta voqealarning qanday talqin qilinishini kulgili va hayotiy tarzda ochib beradi.

Hikoyada Abrorqulovning Parijga ketishi Jiydali aholisining o'z orzu-intilishlarini aks ettiruvchi voqea sifatida tasvirlangan. Oddiy odamlarning o'z hayotlariga rang-baranglik kiritishga bo'lgan intilishi Abrorqulovning "chet el" safariga bo'lgan munosabatlarida yaqqol ko'rinadi. Hikoyadagi quyidagi jumla qishloqning sodda va samimiy hayot falsafasini ko'rsatadi: "Jiydalimizda serjujuq xonadon mo'l, ularni tug'ib-bovlagan 'qahramon ona'lar mo'l, albattaki, tug'dirgan sherimardlar ham shu sanoqda." Bu tasvir orqali muallif xalqning



madaniy va ma'naviy boyligini, ularning turmushidagi oddiylik va mazmuniylilikni mahorat bilan ifodalaydi.

Xulosa

Erkin A'zam adabiyotga hikoyachi sifatida kirib kelgan. Uning hikoyalari mayin yumorga yo'g'rilganligi, umuman, o'zbek tilining, xususan, boysunliklar shevasining betakror jozibasi, pichingga boyligi va tasvir imkoniyatlari cheksizligini ko'rsatishi bilan e'tiborni tortadi. Erkin A'zamning "Anoyining jaydari olmasi" va "Abrorqulov Parijga boradi" hikoyalari xalqona ruhni badiiy asarlarda aks ettirishning noyob namunalari. Ikkala hikoya ham o'zbek xalqining turmush tarzi, hayot falsafasi, ijtimoiy muammolari va ichki ruhiyatini chuqur yoritib beradi. Muallif oddiy qishloq hayoti va uning odamlari orqali xalqning asl tabiatini, ularning orzu-umidlarini, kulgu va qayg'ularini mahorat bilan ifodalaydi.

"Anoyining jaydari olmasi" hikoyasida esa Ramazon orqali xalqning sodda va beg'ubor qiyofasi, o'ziga xos dunyoqarashi, mashaqqatli, ammo ma'noga boy hayoti tasvirlansa, "Abrorqulov Parijga boradi" hikoyasida Abrorqulov obrazida oddiy o'qituvchining xalqning umumiy ma'naviy boyligini aks ettiruvchi timsoli yaratilib, u hazilomuz ohangda ulug'lanadi. Ushbu hikoyalarda xalqchilikni boyituvchi vosita sifatida hajvni va xalqona tilni mohirona qo'llagan. Dialoglar, qahramonlarning gap-so'zlari va harakatlari sodda, samimiy va xalqona ohangga ega bo'lib, o'quvchini o'ziga rom etadi. Hikoyalarda xalqning orzu-umidlari va real hayotdagi muammolar o'rtasidagi qarama-qarshilik nozik ifoda qilingan. Ramazonning shahardagi qiyinchiliklari yoki Abrorqulovning qishloqdagi o'ziga xosliklari orqali muallif xalq hayotining murakkab, ammo ma'noga boy qirralarini ochib beradi. Bu ijtimoiy masalalar nafaqat hikoyalardagi qahramonlarning hayotini belgilaydi, balki xalqchilikning badiiy ko'rinishini ham boyitadi. Xulosa qilib aytganda, yozuvchi davr, muhit bilan bog'liq o'zgarishlar vositasida qahramon ruhiyatini taftish qiladi. Kecha bilan bugunni qiyoslaydi. Erkin A'zam asarlarida ana shunday turfa xarakterlar o'zining butun bo'y-basti, murakkabliklari bilan tasvirlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Erkin A'zam "Yozuvchining bog'i" Yangi asr hikoyalari va eski asrdan bir esdalik. Tosh."MASHHUR-PRESS" 3 bet
2. Erkin A'zam "Anoyining jaydari olmasi" hikoyasi.
3. Adabiyotshunoslikka kirish. Dilmurod Qur'onov.

